

O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ FOLKLOR NAMUNALARIDA UY-RO‘Z’ORGA OID SO‘ZLARNING MUHTASAR LINGVO-KULTUROLOGIK TAHLILI

*Abdujalilova Mashhura Alisher qizi, Namangan
muhandislik texnologiya instituti,*

tayanch doktoranti

Annotatsiya: Xalq folklori bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o‘sha xalqning barcha o‘y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe‘l – atvori va e‘tiqodi aks etadi. Har bir millat o‘ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o‘xshash bo‘lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo‘yoqdorlikni ta‘minlaydi. Xususan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari ishtirok etgan maqollar orqali ikki xalqning madaniyatlar aro farqini ko‘rsatibgina qolmay, yashash tarsi va kundalik hayotdagi o‘xshashliklarni ham yorqin namoyon etishda juda katta vazifani bajaradi. Chunki folklor namunalarda qo‘llanilgan har qanday so‘z yoki atama xoh ro‘zg‘or buyumi bo‘lsin, xoh boshqa sohaga oid termin bo‘lsin, maqolda shu muayyan atamaga bo‘lgan munosabatni ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: badiiy vositalar, G‘arb va Sharq adabiyoti, muhim xususiyat, umuminsoniy jihatlar, taxmin va farazlari

Аннотация: Народный фольклор является культурным наследием этого народа. Они отражают все мысли, мировоззрение, образ жизни, поведение и убеждения этого народа. Поскольку каждый народ имеет свои особенности, на их пословицы это не влияет. Хотя темы в пословицах схожи, образы в них отличаются тем, что не повторяются. Именно эти образы придают пословицам национальный колорит. В частности, через пословицы с названиями предметов быта она не только показывает различия между культурами двух народов, но и играет очень важную роль, наглядно показывая сходство быта и быта. Потому

что любое слово или термин, употребляемый в фольклорных образцах, будь то предмет быта или термин, относящийся к другой области, в пословице можно увидеть отношение именно к этому термину. Ключевые слова: художественные средства, западная и восточная литература, существенные черты, универсальные аспекты, предположения и гипотезы

Annotation: Folk folklore is the cultural heritage of this nation. They reflect all the thoughts, worldview, lifestyle, behavior and beliefs of that people. As each nation has its own characteristics, this does not affect their proverbs. Even though the topics in the proverbs are similar, the images in them are distinguished by the fact that they are not repeated. It is these images that provide national coloring in proverbs. In particular, through proverbs with the names of household items, it not only shows the differences between the cultures of the two peoples, but also plays a very important role in clearly showing the similarities in the way of life and daily life. Because any word or term used in folklore samples, whether it is a household item or a term related to another field, the attitude to this particular term can be seen in the proverb.

Keys words: artistic tools, Western and Eastern literature, essential features, universal aspects, assumptions and hypotheses

G‘arb va Sharq adabiyotidan, ingliz va o‘zbek maqollarida ro‘zg‘orga oid leksema, atama va iboralarning o‘xshash jihatlariga nazar solsak, ushbu ikkala millatda ham do‘stlik, vatanparvarlik, hallolik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, adolat kabi tushunchalar doimo madh etilgan. Misol uchun: Every bird likes its own nest – maqolini aytishimiz mumkin. Ushbu maqolni so‘zma-so‘z tarjima qilsak, har bir qush o‘z inini sevadi degan tarzda tarjima qilinadi va o‘zbek tilidagi maqol bilan bir xil Vatanni sevish ma‘nosi yuzaga kelsada lekin tarjimadan ko‘ra o‘zbek tilidagi ekvivalentini keltirsak yanada aniq va tushunarli bo‘ladi “Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni”. Bu yerda ro‘zg‘orga oid so‘zlarni tahlil qiladiga bo‘lsak, ingliz tilidagi “nest” so‘zi bevosita tirik mavjudotning yashash uchun mo‘njallangan uyi, yeri, vatani kabi ma‘nolarni ifodalaydi.

Maqollarning har ikkala tilda o'rganilish jihatlarini solishtiradigan bo'lsak, maqollarni to'plam holatiga kelishi, badiiy vositalarning ishlatilish o'rnini o'rganish va umuminsoniy jihatlarini ko'rsatish kabi masalalar deyarli bir xil. Ingliz tilida maqol atamasi asosan "proverb" so'zi orqali ifoda etiladi. Ingliz olimlari tomonidan maqollarning har xil xususiyatlari ko'rib chiqilgan va takliflar keltirilgan. Ingliz maqollari ustida ko'plab izlanishlar olib borgan olimlar sifatida Honik, Mayder, Norik, Teylor, Aroralarni ayta olamiz. Ular maqollarni o'ziga xos eng muhim jihatlarini fanda isbotlab, asosan, ulardagi strukturaviy tuzulish, qanday badiiy vositalarning ishlatilishi, ijtimoiy hayotdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratganlar va ularni o'z asarlarida berib o'tganlar. Ushbu sohaga juda katta hissa qo'shgan olimlardan biri folklorshunos Maydarning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Chunki u maqollar ustida juda ko'plab izlanishlar olib borgan va nazariy asarlar yozgan olimlardan biridir. U o'z asarlarida maqollarning eng muhim ahamiyatli tomonlarini to'laligicha izohlashga harakat qilgan. Va u maqol haqida shunday fikrlarni bildiradi: Ya'ni: "Maqollar juda keng ko'lamda qo'llanilib ularni qo'llashda chegara yo'q. Maqollar bizning dalillarimizni mustahkamlash, umumiy aniq fikrlarimizni mustahkamlash, umumiy va aniq fikrlarimizni ifodalash, boshqa insonlarni boshqarish yoki ularga ta'sir o'tqazish, jamiyatdagi illatlarni ifodalash". Shuningdek, folklorshunos olim Norik maqollar haqida "Maqollar mavjud voqea yoki hodisaning axborotchisi" deydi va maqollarning o'ziga xos jihati an'anaviylik haqida shunday fikrni bildiradi." The traditional nature of proverbs correlates closely with their status as items of folkloric". Maqollar nazariyasi haqida o'z izlanishlarini olib borgan olimlardan biri Trench bo'lib, u maqollardagi 3 narsani "shortness, sense, salt" ya'ni "qisqalik, hissiyot, ta'm" ni juda muhim deb hisoblaydi. Bularni quyida qisqacha keltiramiz: 1. Shortness (Qisqalik): Trench maqollardagi qisqalik eng muhim omil deb aytadi. Yaxshi maqol hamisha qisqa, yurakdan aytilib yurakka yetib borishi lozim deydi. U ba'zan 2,3, yoki undan ortiq so'z bilan ifodalangan bo'lishi kerkligini aytib o'tgan. Honek maqollarni jamiyatning barcha sohasida folklorchi olimlardan tortib to siyosatchilar, hatto

huquqshunoslar ishida ham ahamiyatga ega ekanligi aytadi. Shunga ko‘ra maqollarning turli xil maqsad va vazifalari, istiqbollari, taxmin va farazlari, uslublari va nazariy xulosalari mavjudligini ta’kidlaydi. Uning fikricha maqollar aniq va tugal nazariyaga ega emas. Lekin Honek o‘zining “A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom” asarida maqollarning o‘ziga xos 7 ta muhim xususiyatini ko‘rsatadi: Personal: The proverb is treated from a subjective viewpoint based purely on personal experience and understanding. Formal: This is a scientific approach that primarily uses the methods and concepts of linguistics, logic, and semiotics to define, classify and semiotics to define, classify and otherwise analyze proverbs.

- *Religious: Religious teaching and wisdom are examined in texts.*
- *Literary: Proverbs in prose and poetry re analyzed in terms of their literary value and what they tell us about the writer, their times, and so forth.*
- *Practical: The many uses of the proverb in intelligence testing, psychotherapy.*
- *Cultural: This is a scientific approach to the proverb that treats it as a multifunction from of folk literature that arises from and is embedded in a sociocultural context.* Ko‘rib turganingizdek, maqollar uchun berilgan har bir nazariyaning maqollarni tadqiq qilishda o‘ziga xos ahamiyati bor.

Ingliz folklorshunosligida o‘zgacha o‘rin egallagan bu janr, o‘zbek adabiyotida ham ko‘plab izlanishlarga sabab bo‘lgan.

References

1. Axmedova.U.K. Ingliz va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch, 2014. 41-bet.
2. Doyle C. C. (2014). The Dictionary of Modern Proverbs. Yale: Yale University Press. [Google Scholar]
3. Mieder W. (2004). Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press. [Google Scholar]
4. Norrick N. R. (1981). Proverbial Linguistics: Linguistic Perspectives on Proverbs. Trier: Linguistics Agency. [Google Scholar]

5. Taylor A. (1962). *The Proverb, and an Index to the Proverb*. Copenhagen: Rosenkilde and Bagger. [Google Scholar]
6. Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF "BABURNAME". *Gospodarka i Innowacje*, 24, 1067-1069.
7. Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN "BABURNAME". *The Scientific Heritage*, (49-3), 50-51.
8. Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». *Sciences of Europe*, (45-5 (45)), 46-48.